



**KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH – DAVLAT VA JAMIYAT
YANGILANISHIDA MUHIM OMIL**

Quvondiqova Sohiba Orif qizi

Termiz iqtisodiyot va servis universitetining
Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)
ta'lim yo`nalishi 2-bosqich talabasi

Turabova Sevara Kattaqulovna,

falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
«Ijtimoiy-gumanitar fanlar» kafedrası dotsenti

[ORCID - 0000-0001-9028-6943](https://orcid.org/0000-0001-9028-6943)

[Tel.: +998996762269](tel:+998996762269)

E-mail: turobova.sevara@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi davlat va jamiyat yangilanishining muhim omili sifatida tahlil qilinadi. Maqolada korrupsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'siri ko'rsatilishi bilan birga, uning oldini olish va kamaytirish bo'yicha samarali chora-tadbirlari tavsiya etilgan. Qonun ustuvorligi, shaffoflik va jamoatchilik nazoratini ta'minlash orqali korrupsiyaga qarshi kurashdagi zamonaviy yondashuvlar muhokama qilingan. Shuningdek, maqolada korrupsiyaga qarshi kurashning milliy va xalqaro tajribasi tahlil qilinib, uning davlat boshqaruvini isloh qilishdagi ahamiyati yoritilgan.



Kalit soʻzlar: korrupsiya, korrupsiyaga qarshi kurash, davlat boshqaruvi, jamiyat yangilanishi, qonun ustuvorligi, shaffoflik, jamoatchilik nazorati, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, milliy tajriba, xalqaro tajriba, islohotlar, davlat va jamiyat hamkorligi.

Аннотация: В данной статье рассматривается вопрос борьбы против коррупции как важный фактор обновления государства и общества. Помимо освещения негативного влияния коррупции на социально-экономическое развитие, в статье предлагаются эффективные меры по её предупреждению и сокращению. Обсуждаются современные подходы к противодействию коррупции через обеспечение верховенства закона, прозрачности и общественного контроля. Кроме того, проводится анализ национального и международного опыта борьбы с коррупцией, подчёркивается его значение в реформировании государственного управления.

Ключевые слова: коррупция, борьба с коррупцией, государственное управление, обновление общества, верховенство закона, прозрачность, общественный контроль, социально-экономическое развитие, национальный опыт, международный опыт, реформы, сотрудничество государства и общества.

Abstract: This article examines the issue of fighting corruption as an important factor in the renewal of the state and society. In addition to highlighting the negative impact of corruption on socio-economic development, the article proposes effective measures for its prevention and reduction. Modern approaches to combating corruption are discussed, focusing on ensuring the rule of law, transparency, and public oversight. Furthermore, the article analyzes national and international experiences in fighting corruption, emphasizing their significance in reforming public administration.



Key words: corruption, anti-corruption measures, public administration, societal renewal, rule of law, transparency, public oversight, socio-economic development, national experience, international experience, reforms, state-society cooperation.

KIRISH. Korrupsiya – bu nafaqat muayyan davlat yoki jamiyatning ichki muammosi, balki butun insoniyat uchun katta xavf tug‘diradigan global muammolardan biridir. Uning salbiy ta’siri iqtisodiyot bilan cheklanib qolmasdan, ijtimoiy munosabatlar va siyosiy jarayonlarga ham jiddiy zarar yetkazadi. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash mamlakatning barqaror taraqqiyoti, fuqarolar farovonligi va qonun ustuvorligini ta’minlash uchun zarur sharoit yaratadi. Shu sababli, mazkur illatga qarshi kurashish vazifasi davlat idoralari bilan bir qatorda barcha fuqarolarning ham yuksak mas’uliyatiga aylanishi lozim. Ayni paytda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham dolzarb vazifalardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Bugungi dunyoda ko‘plab mamlakatlar ushbu illatni yo‘qotish maqsadida zamonaviy texnologiyalar, ta’lim tizimi va shaffof boshqaruv orqali yuqori natijalarga erishishga harakat qilmoqda. O‘zbekiston ham korrupsiyaga qarshi kurashishni ustuvor yo‘nalish sifatida tanlab, qonunchilikni takomillashtirish, shaffoflikni oshirish va jamoatchilik ongini o‘zgartirish yo‘nalishida keng qamrovli islohotlarni amalga oshirayotgan davlatlar qatoridan o‘rin oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Korrupsiyaga qarshi kurash mavzusi jahon miqyosida keng o‘rganilgan bo‘lib, ko‘plab milliy va xalqaro tadqiqotlarda uning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy oqibatlari, shuningdek, uni kamaytirish bo‘yicha turli yondashuvlar muhokama qilingan. Jahon banki, Transparency International¹, OECD² kabi xalqaro tashkilotlar

¹ 100 ballik indeks bo‘yicha (bu yerda 0 — korrupsiyaning o‘ta yuqori darajasi, 100 — o‘ta past daraja) O‘zbekiston 33 ball ([bir yil avval](#) — 31 ball edi) to‘pladi. O‘zbekiston 2021-yilda [140](#), 2020-yilda [146-o‘rinda](#) edi.

<https://www.gazeta.uz/oz/2024/01/30/transparency-international/>

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_hamkorlik_va_taraqqiyot_tashkiloti



tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashning global tamoyillari, shaffoflik va javobgarlikni oshirishga qaratilgan strategiyalar taklif etilgan. Hozirda korrupsiya tushunchasini yoritishda bir qancha ta'riflar berilgan bo'lib, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida korrupsiyaga eng qisqa, lekin keng qamrovli quyidagicha ta'rifni uchratishimiz mumkin: "Korrupsiya – bu shaxsiy naf ko'rish maqsadida davlat hokimiyatini suiiste'mol qilishdir". Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonunida esa «Korrupsiya – shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etishdir»³ deya ta'riflangan.

Maqolada xorijiy tadqiqotchilarning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha samarali mexanizmlar va innovatsion yondashuvlar borasidagi ishlanmalari tahlil qilindi. Xususan, "Transparency International"⁴ning korrupsiya indeksi yuzasidan berilgan ma'lumotlari ushbu maqolaning nazariy va amaliy asosini tashkil etdi. Adabiyotlarni o'rganish davomida korrupsiyaga qarshi kurashishning faqat huquqiy chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmasdan, uning ijtimoiy-siyosiy ildizlarini bartaraf etish zarurligi namoyon bo'ladi. Shuningdek, milliy miqyosda O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash borasida qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi Qonun, shuningdek, "2021–2025 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish milliy strategiyasi", "2021 – 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi" asosida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etishi, yshbu hujjatlarda davlat boshqaruvida shaffoflikni ta'minlash, korrupsiya xavfini baholash, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish kabi tamoyillarga alohida e'tibor qaratilgan.

³Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son. (Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullangan).

⁴<https://www.transparency.org/ru/press/cpi2023-corruption-perceptions-index-weakening-justice-systems-leave-corruption-unchecked>



Korrupsiyaga qarshi kurashning tarixiy ildizlari qadim zamonlarga borib taqaladi. Tarixiy manbalarda, korrupsiyaga qarshi kurashgan birinchi davlat sifatida qadimgi Shumerning “Lagash shahar-davlati hukmdori Uruinimgina”⁵ tan olinadi. Qadimgi Misr, Bobil va Rim imperiyalari davridayoq davlat boshqaruvida suiiste’molchilikka qarshi qattiq choralar ko‘rilgan. Masalan, Rim imperiyasida davlat mansabdorlarining noqonuniy boyish holatlari aniqlanganda, ular jazoga tortilgan va mol-mulkleri musodara qilingan. Bu davrlarda korrupsion jinoyatlar uchun belgilangan indikativ va ko‘pincha shafqatsiz jazolarga qaramay, unga qarshi kurash kutilgan natijalarga olib kelmagan.

O‘rta asrlarda korrupsiyaga qarshi kurash siyosati davlatlarning boshqaruv tizimlari va ijtimoiy sharoitlariga bog‘liq ravishda shakllangan. Sharq mamlakatlarida, jumladan, Movarounnahr va Xuroson hududlarida davlat boshqaruvida adolat tamoyillariga asoslangan siyosat yuritilib, Islomiy boshqaruv tizimida korrupsiya katta gunoh sifatida baholangan va uning oldini olish uchun Qur’on va hadislarida belgilangan qoidalarga amal qilingan. G‘arb mamlakatlarida ham korrupsiyaga qarshi kurash turli shakllarda olib borildi. Masalan, Angliya qirollaridan biri Genrix II davlat amaldorlarini korrupsiyadan saqlash uchun sud tizimini isloh qilish va amaldorlarning faoliyatini maxsus kuzatuvchilarga topshirgan. Shu tariqa, davlat boshqaruvida adolat va shaffoflik tamoyillari asosida korrupsiya darajasini kamaytirishga intilishgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashning zamonaviy bosqichdagi taraqqiyoti XX asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, Ikkinchi Jahon urushidan so‘ng xalqaro miqyosda korrupsiyaga qarshi kurash kuchayganligi kuzatiladi. 1948-yilda Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti(OECD) tomonidan "Korrupsiyaga qarshi kurash konvensiyasi" qabul qilindi, u davlat boshqaruvida shaffoflik va hisobdorlikni oshirishga qaratildi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 2003-yilda qabul qilingan "Korrupsiyaga qarshi

⁵ <https://minek.rk.gov.ru/ru/structure/539> — Коррупция: понятие, виды, история появления и развития



konvensiya" (2003-yil 31-oktyabr) xalqaro darajada korrupsiyaga qarshi hamkorlikni yangi bosqichga ko'tardi. Mazkur konvensiya davlat boshqaruvini shaffoflashtirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va korrupsiyani keskin kamaytirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. O'zbekiston ushbu konvensiyaga 2008-yilda qo'shildi va shundan so'ng mamlakatda korrupsiyaga qarshi kurashda qator qonunlar hamda dasturlar qabul qilindi. Ayni paytda, O'zbekistonda ham jamiyat yangilanishi va davlat boshqaruvini samarali shakllantirish jarayonida korrupsiyaga qarshi kurash ustuvor yo'nalishlardan biriga aylandi. Buning uchun qonun ustuvorligini ta'minlash, shaffoflikni kuchaytirish va jamoatchilik nazoratini tashkil etishga qaratilgan islohotlar jadal sur'atlarda olib borilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro tajribani o'rganish va innovatsion yondashuvlarni joriy qilish orqali samarali chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda.

MUHOKAMA. Korrupsiya – bu jamiyat va davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy jabhalariga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi, keng ko'lamli global muammo hisoblanadi. Uning oldini olish va samarali tarzda kurashish uchun muntazam va har tomonlama yondashuv talab etiladi. Xalqaro tashkilotlar va tadqiqotchilar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha eng samarali strategiyalar o'rganib chiqilgan bo'lsa-da, ularni amalda qo'llash ko'plab mamlakatlarda murakkabliklarga duch kelmoqda. Masalan, Somali, Suriya va Janubiy Sudan kabi mamlakatlarda korrupsiya darajasi juda yuqori bo'lib qolmoqda, bu esa davlat institutlari zaifligi va qonun ustuvorligining yo'qligi bilan bog'liq. BMT Bosh kotibi A. Gutgerish 2019 yil 9 dekabr — “Korrupsiyaga qarshi kurashish kuni” munosabati bilan o'tkazilgan tadbir davomida jahon hamjamiyatida har yili 1 trillion AQSh dollar hajmida pora berish va olish jinoyatlari sodir bo'lishi hamda dunyo iqtisodiyoti har yili korrupsiya tufayli 2,6 trillion AQSh dollaridan ortiq mablag'dan ayrilib, bu jahon yalpi ichki mahsulotining 5 foizini tashkil etishini ma'lum qilgan edi. Bunday holatlar iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini cheklaydi va aholining davlatga bo'lgan ishonchini pasaytiradi.



Daniya, Finlyandiya va Yangi Zelandiya kabi mamlakatlarning tajribasi korrupsiyaga qarshi kurashda yuqori samaradorlikka erishish uchun davlat boshqaruvi shaffofligini oshirish, kuchli adliya tizimi va faol fuqarolik jamiyati kabi omillarning ahamiyatini ko'rsatadi. 2023 yildagi korrupsiyani qabul qilish indeksida ushbu mamlakatlar eng yuqori ballarni qayd etdi (90 va undan yuqori). Bu esa korrupsiya darajasini kamaytirishning aniq mexanizmlari mavjudligini isbotlaydi. Shuni ta'kidlash lozimki, korrupsiyaning kelib chiqishi va unga qarshi kurashning samaradorligi mamlakatlarning siyosiy va iqtisodiy tizimiga bog'liq. Transparency International xalqaro nodavlat tashkiloti tomonidan Korrupsiyani qabul qilish indeksining 2023-yil natijalariga ko'ra 180 ta davlat orasida O'zbekiston 33 ball bilan 121-o'rinni egalladi. Mamlakat ballarini ikkitaga oshirib, reytingdagi o'rnini 5 pog'onaga yaxshilashga erishdi. 2022-yilda 126 o'rinni egallagandi. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi matbuot kotibining qayd etishicha, O'zbekiston mazkur indeksda so'nggi 7 yil davomida o'sish sur'atlarini qayd etayotgan (2017-yilda 22 balidan 2023-yilda 33 ballgacha) davlat sifatida e'tirof etilgan. Albatta, bu ko'rsatkich so'nggi yillardagi ijobiy o'zgarishlarning mavjudligidan dalolat beradi, ammo hali oldinda hal etilishi zarur bo'lgan ko'plab masalalar borligini ham ko'rsatadi. Mamlakatda so'nggi yillarda ushbu sohadagi islohotlar jadallik bilan amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, bu jarayonda murakkabliklar ham mavjud. Xususan, tadbirkorlik muhitining yetarli darajada shaffof emasligi va byurokratik to'siqlar investitsiyalarni jalb qilishga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda korrupsiyaning iqtisodiyotga ta'siri iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi va tengsizlik darajasini oshirishi mumkin. Shu sababli, ishbilarmonlik muhitini isloh qilish, davlat xizmatlarining shaffofligini oshirish va byurokratik tizimni soddalashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekistonda so'nggi yillarda amalga oshirilgan bir qator islohotlar, jumladan, davlat xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatishning joriy qilinishi, davlat idoralari shaffofligini oshirishga yo'naltirilgan. Xususan, davlat xizmatlarini elektron tarzda ko'rsatish uchun yaratilgan "Elektron



hukumat" platformasi inson omilini kamaytirish orqali korrupsiya xavfini pasaytirishga yordam berayotgani qayd etilmoqda.

Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi va jamoatchilik nazoratining kuchayishi ham O'zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim o'rin tutadi. Mamlakatda ommaviy axborot vositalari va nodavlat tashkilotlarning korrupsiya holatlarini yoritish va tahlil qilish imkoniyatlari kengaytirilayotgani ijobiy qadamdir. Biroq, bu sohada yanada katta imkoniyatlarning mavjudligini ta'kidlash joiz.

Ilmiy prognozlarga ko'ra, O'zbekistonda korrupsiya darajasini pasaytirish uchun quyidagi qadamlar samarali bo'lishi mumkin:

- **Qonun ustuvorligini mustahkamlash:** mustaqil sud tizimi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning samaradorligini oshirish.
- **Fuqarolarning ishtirokini kengaytirish:** jamoatchilik nazoratining kuchaytirilishi va fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyatini qo'llab-quvvatlash. Nodavlat tashkilotlar va ommaviy axborot vositalarining korrupsiya holatlarini yoritishi va tahlil qilishini qo'llab-quvvatlash. Fuqarolarni korrupsiyaga qarshi kurashda faol ishtirok etishga rag'batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish.
- **Biznes muhitini yaxshilash va byurokratik to'siqlarni kamaytirish.** Davlat xaridlarini shaffof tarzda tashkil etish uchun xalqaro standartlarni joriy qilish.
- **Axborot texnologiyalaridan keng foydalanish:** davlat xizmatlari sohasida shaffoflikni ta'minlash uchun zamonaviy texnologiyalarning keng qo'llanilishi.

Xulosa qilib aytganda, korrupsiyaga qarshi samarali strategiyalarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirish O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, davlat institutlarining nufuzini oshirish hamda fuqarolarning davlatga bo'lgan ishonchini mustahkamlashda ustuvor ahamiyatga ega. Bu jarayonning muvaffaqiyati davlat institutlari va fuqarolik



jamiyati o'rtasidagi samarali hamkorlikka bog'liq. Mazkur sohadagi har bir muvaffaqiyatli qadam O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi. Zero, korrupsiya faqatgina davlat boshqaruvi tizimining zaif joylarini ochib berib qolmay, balki iqtisodiy o'sishni sekinlashtiradi, tengsizlikni oshiradi va ijtimoiy barqarorlikka putur yetkazadi. Shu sababli, korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat islohotlar masalasi, balki mamlakatning strategik rivojlanish yo'nalishlaridagi markaziy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.01.2017 yildagi O'RQ-419-son. (Qonunchilik palatasi tomonidan 2016-yil 24-noyabrda qabul qilingan Senat tomonidan 2016-yil 13-dekabrda ma'qullangan).
2. 2021 — 2025 yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 04.03.2021 yildagi PF-6181-son
3. Турабова, С. К. (2023). Влияние современных технологий и социальных сетей на формирование молодёжи. International scientific journal of Biruni, 2(3), 132-137.
4. <https://www.transparency.org/ru/press/cpi2023-corruption-perceptions-index-weakening-justice-systems-leave-corruption-unchecked>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Iqtisodiy_hamkorlik_va_taraqqiyot_tashkiloti